



IJTIMOYLIKNI IFODALOVCHI GENDER LEKSIKASI TARJIMASIDA MUQOBILLIKKA ERISHISH MASALALARI¹

Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna

Namangan davlat universiteti

Ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: nargiza3967757@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-2542-9325

ANNOTATSIYA

Insonlar nutqini ifoda etuvchi leksik birliklar turli guruhlariga bo'linadi, jumladan gender leksik birliklari. Bu birliklar ayol va erkaklar bilan bog'liq turli sohalarda uchraydi, masalan, kiyim-kechaklar, uy-ro'zg'or asboblari, oziq-ovqat nomlari va mehnat qurollari. Maqolada gender leksik birliklarining badiiy asar tarjimasidagi muvofiqlikni ta'minlashda transformatsion usullarni qo'llash tahlil qilingan. Tarjima muvofiqligi – aslyatda berilgan ma'lumotni leksik, leksik-grammatik va leksik-semantik usullardan foydalangan holda yangi asar shaklida taqdim etishdir. Tarjimon gender leksik birliklarini to'liq anglab, mos muqobil shaklni tanlashi kerak. Erkak va ayollarning turmush tarzi, ularni o'rab turgan ijtimoiylik va gendrologik tafovutlar badiiy asar tasviriga ta'sir qiladi. Maqolada bu leksik birliklar kiyimlar, tana a'zolari, uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, pardoz-andoz buyumlari va aksessuarlar kabi guruhlariga ajratilib, tarjimadagi talqinlar tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR

Gender leksikasi, gender komponentli leksika, badiiy asar tasviriyliigi, gendrologik tafovutlar, yondosh leksik birliklar, tarjima muvofiq-liklari, tabdil usullari, muqobillikka erishish.

Received: September 2, 2024

Accepted: October 6, 2024

Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons

Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Abdullayeva N.A. Ijtimoiylikni ifodalovchi gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishish masalalari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

ПРОБЛЕМЫ ДОСТИЖЕНИЯ АДЕКВАТНОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ГЕНДЕРНОЙ ЛЕКСИКИ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮЩЕЙ СОЦИАЛЬНОСТЬ

Абдуллаева Наргиза Ахмаджоновна

Наманганский государственный университет

старший преподаватель

кафедра английского языка

e-mail: nargiza3967757@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-2542-9325

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Лексические единицы, являющиеся выразительными средствами человеческой речи, делятся на различные группы. Гендерные лексические единицы, связанные с мужчинами и женщинами, являются междисциплинарным слоем и широко используются в разных сферах жизни. Гендерные различия можно выразить через названия предметов, одежды, бытовых принадлежностей, продуктов питания, частей тела и орудий труда. В статье анализируется использование трансформационных методов перевода для достижения соответствия гендерных лексических единиц в художественных произведениях. Соответствие в переводе – это передача информации, представленной в оригинале, с использованием лексических, лексико-грамматических и лексико-семантических преобразований. Переводчик должен понимать гендерный аспект содержания и правильно выбирать соответствующую лексику и грамматические формы. Социальная среда, отражающая разные образы жизни мужчин и женщин, также имеет гендерную специфику. Лексические единицы, такие как названия одежды, частей тела, бытовых предметов, орудий труда, косметики и аксессуаров, используются для создания образов персонажей и повышения выразительности художественного произведения.	Гендерная лексика, образность художественного произведения, гендерные различия, смежные лексические единицы, соответствие перевода, методы преобразования, лексика с гендерным компонентом, достижение адекватности.

Received: September 2, 2024

Accepted: October 6, 2024

Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

ISSUES OF ACHIEVING ALTERNATIVES IN THE TRANSLATION OF THE GENDER LEXICON REPRESENTING SOCIALITY

Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna

Namangan state university

Senior lecturer in the Department of English

E-mail: nargiza3967757@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-2542-9325

ABSTRACT	KEYWORDS
Lexical units representing human speech are classified into distinct groups based on their functional domain. Gender-specific lexical units represent a pervasive phenomenon across various domains of human activity. They manifest in a multitude of ways, including the use of gendered language to describe women and men in various aspects of life. The phenomenon of genderism can be observed in a multitude of everyday items, including clothing, household items, labor tools, food names, body parts, and more. This article brings the gender lexicon representing the same sociality under discussion with practical analysis to show effective results by translators using transformational methods in achieving coherence in the translation of a work of art. Equivalence in translation is the delivery of information given in the original in the form of a new work to the reader using lexical, lexical - grammatical and lexical-semantic transformations efficiently. From a gendrological point of view, a translator should be able to choose a suitable alternative form of gender lexical units in the translation. All the sociality that surrounds men and women, also has gendrological differences, and they are considered a kind of lexicon with the image of heroes in increasing the coloring of a work of art. Grouping the same lexical units as follows, we paid attention to how they were interpreted in the translation of the work of art. They are the names of clothes and fabrics; names of body parts; names of household goods and labor tools; names of make-up products, jewelry and accessories (ornaments).	Gender lexicon, gender component lexicon, artwork representation, gendro-ological discrepancies, adjacent lexical units, translation correspondences, tabdil methods, achieving alternative.

Received: September 2, 2024

Accepted: October 6, 2024

Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons

Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Tilda soʻzlar doimo bir- birini taqozo etadi va sintagmatik tarzda yaʼni soʻz birikmasi yoki gap shaklida, paradigmatic holatda esa maʼlum leksik-semantik assotsiatsiyalar shaklida qoʻshilib ketadi. Tilning leksik-semantik sohasining muhim xususiyati soʻzlarni semantik oʻxshashligi boʻyicha guruhlashtirishdir. Bu tamoyil tilning leksik-semantik tuzilishini taʼriflash asosida soʻzlar oʻrtasidagi munosabatni aniq ifodalaydi (Axmedova.M.,2023,26). XX asrning 70-80 yillaridan boshlab oʻzbek tili leksikologiyasi tavsifiy bosqichdan yangi nazariy bosqichga koʻtarildi va bu leksikani maʼlum bir semantik guruhlardan, muayyan maʼno elementlarining munosabatlaridan tashkil topgan yaxlit bir sistema sifatida oʻrganish bilan xarakterlanadi(Axmedova.D.,2021,56).

Gender leksikasining tilda yuzaga chiqishi, mualliflar tomonidan badiiy asarlarda qoʻllanilishi hamda tarjimonlar tomonidan ularni muqobil shaklini topib qayta yaratilishida ham, oʻz aksini topadi. Maʼlumki, tarjimaning oliy vazifalaridan biri asliyatning toʻliq kommunikativligini saqlagan holda, kitobxonga mazmun, struktura hamda muvofiqlik jihatidan teng yangi asarni taqdim etishdir. Tarjima nazariyasida xuddi shu muvofiqlik uch turga boʻlinadi va ular vazifaviy muvofiqlik, mazmuniy muvofiqlik hamda strukturaviy muvofiqliklardir (Sirojiddinov.Sh.,2011,16). Aynan shu muvofiqlikning mazmuniy turiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, u tarjima va asliyatning mazmun va maʼno jihatdan toʻliq mos kelishini bildiradi. Tarjimada muvofiq matnlarning yaratilishi ikki matndagi oʻzaro aloqada boʻlgan til muvofiqligini keltirib chiqaradi. Har qanday tarjimada bir-birining oʻrnini bosuvchi aynan bir xil yoki oʻxshash juft birliklar mavjud. Til birliklarining muloqot qiymati uning semantikasi yaʼni maʼno mohiyatiga bogʻliq. Shuning uchun tarjima muvofiqligi (teng maʼnolilik) tegishli til tizimida birliklarning oʻzaro oʻxshamagan joylarni egallashi bilan yaratiladi (Rahimov.Gʻ., 2016, 16). Tarjima qilingan matnni manba matn bilan solishtirmasak, ularning teng qiymatli birliklarini aniqlay olmaymiz. Shu sababli ham, badiiy asarlardagi gender leksikasini tarjimada adekvat holatda berilishida ikki tilning leksik-semantik sathidagi bir xilliklar tarjimonga juda qoʻl keladi. Insonlarning ijtimoiy turmush tarzini tashkil etuvchi

barcha sohalarda ikki jins vakillariga tegishli bo'lgan lisoniy birliklar mavjud bo'lib, ularni o'z-o'zidan gender leksikasi tarkibiga kiritish muqarrardir. Galdagi fikrlarimizni aynan kunlik hayotimizda ishlatadigan gender leksik birliklarini badiiy asarlar tarjimasidagi muvofiqlik jihatlariga qaratamiz.

ASOSIY QISM

Tilda ijtimoiylikni ifodalovchi leksemalar jamiyatdagi insonlar hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, doimiy ravishda ular bilan birga yashaydi. Yanikim, vaqtlar o'tishi bilan ba'zi bir so'zlar iste'moldan chiqib ketishi barobarida, yangi bir gendrologik leksik birliklarni paydo bo'lishi kuzatiladi. Ma'lumki, ijtimoiylik bu eng katta tarmoq hisoblanib, olamni gendrologik anglab yetishda insonlar atrofidagi unga xizmat qiluvchi ijtimoiy sohalarga ko'ra, gender leksikasini quyidagi turkumlarga bo'lishni ma'qul deb topdik. **1) Kiyimlar va matolar nomlari; 2) tana a'zolari nomlari; 3) uy ro'zg'or buyumlari hamda mehnat qurollari nomlari; 4) pardoz-andoz buyumlari, taqinchoqlar hamda aksessuarlar (bezaklar)ning nomlari.**

Badiiy asarlar tarjimasida ayollar va erkaklar atrofidagi jinsga bog'liq so'z va iboralarining transformatsiyasida asosan to'liq muqobillikka duch kelamiz, chunki har ikki til vakillari uchun xizmat qiluvchi bu kabi leksemalarni egalari tomonidan ma'lum nomlar bilan atalishi tabiiydir. Ayrim holatlarda, bu ko'pincha kiyim va mato nomlarida, uy ro'zg'or buyumlarini atashda hamda taom nomlari orqali genderlikni ifodalanishida, insonlarning yashash hududlari yoki madaniy turmush tarzi kabi omillar sababli tarjima izohlash, sinonimik so'zlardan foydalanish usullari bilan ochib beriladi. Fikrlarimizni yuqoridagi turkumlarga asos bo'luvchi misollar tahlili bilan davom ettiramiz.

a) Kiyimlar va matolar nomining gender leksikasi sifatida qo'llanishi.

Ijtimoiylik nuqtayi nazaridan kiyimlar va ularning asosi bo'lgan matolar insonlarning eng oldingi ehtiyojini qondiruvchi tushunchalardir. Badiiy asarda obrazlilik masalasida, qahramonlar tasvirini berishda bu turkumga kiruvchi gender lisoniy birliklaridan mualliflar yetarlicha foydalanadilar. Jumladan, Margaret

Mitchelning tahlilimiz ostidagi asarida shunday jumlar mavjud. *“She picked up Ellen’s Paisley shawl to wrap about her but the colors of the faded old square clashed with the moss-green dress and made her appear a little shabby. Opening Aunt Pitty’s closet she removed a black broadcloth cloak, a thin fall garment which Pitty used only for Sunday wear, and put it on.”*(Mitchell.M.,1993,176) “U Ellining kashmiri ro‘molini olib yelkasiga tashladi, lekin eski matoning rangi o‘chgan, yashil yo‘sin rangdagi ko‘ylakka mos tushmasdi, Skarlett qandaydir g‘aribona ko‘rinish kasb etdi. Shunda u Pitti ammaning shkafini ochdi va Pitti faqat yakshanba kunlari o‘raydigan qora harir yopinchiqni olib yelkasiga tashladi.”(Митчелл.М.,2020,73)

Asardan olingan ushbu bosh qahramonning voqealar ketma-ketligidagi tasvirida ayol jinsi vakillarining kiyimlari qatoridan o‘rin olgan *“shawl, dress, broadcloth”* so‘zlari o‘zbek tarjimoni tomonidan *“ro‘mol, ko‘ylak, yopinchiq”* tarzida o‘zbekchalashtirilgan. Ushbu kiyim nomlari bilan birgalikda ularning ranglari, sifati va asos matolari ham mayda tasviriy detallar sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, *“Paisley shawl, the moss-green dress, a black broadcloth”* singari tasviriy ifoda beruvchi birikmalarni tarjimon talqinida *“кашмири рўмоли, яшил йўсин рангдаги кўйлак, қора ҳарир ёпинчиқ”* shaklida ko‘rishimiz mumkin. Biroq shuni ta’kidlash joizki, muallif tomonidan ushbu parchada berilgan *“a thin fall garment”* iborasi tarjimada tushirib qoldirilgan. Xuddi shu so‘z birikmasini *“yupun kuz kiyimi”* yoki *“plash”* tarzida tarjima qilinganda maqsadga muvofiq bo‘lardi(Collins COBUILD Advanced Learner’s Dictionary(online)). Bundan tashqari mato nomini tarjima qilishda ham ayrim kamchiliklar mavjud deb o‘ylaymiz, chunki aslyatda berilgan *“Paisley shawl”* so‘z birikmasi tarixiga nazar tashlasak, bu xildagi sharflar XVIII asr oxiri va XIX asrlarda Yevropada ayollar kiyimlarining zamonaviy bir qismi bo‘lganligiga va ular Hindistonning Kashmir ro‘mollaridan andoza olgan holda XVII asrda Yevropada ishlab chiqarila boshlaganligiga guvoh bo‘lamiz (Wikipedia(online)). Tarjimon aynan shu o‘rinda bir oz anglashilmovchilik holatlariga yo‘l qo‘ygan, chunki *“Paisley ro‘moli”* bu aynan *“Kashmir ro‘moli”* tarzida tarjima qilish bilan, shu buyumning kelib chiqishi tarixiga putur yetkazgan holda, kitobxonga butunlay boshqa turdagi ro‘mol haqida ma’lumot beradi. Bu kabi kichik xatoliklarga yo‘l qo‘yish aslyatdagi

muallif qahramoni tasvirini o'zgartirib yuborishi mumkin. Agar mutarjim shu "Paisley shawl" iborasini izohlash usuli bilan tarjima qilganda yaxshiroq natijaga erishgan bo'lardi.

b) Jinsga mos holda tana a'zolari nomi bilan genderlikni aniqlash

Erkaklar va ayollarning tana a'zolari umumiylik jihatidan bir xil nomlanadi, lekin xususiylik jihatidan faqat erkaklar uchun yoki ayollarning o'zigagina xos bo'lgan tana a'zolari mavjud bo'lib, ular tilshunoslikda genderlik belgilovchi leksik birliklar qatoridan o'rin oladi. Masalan badiiy asar mutolaasida "mo'ylov, soqol, baquvvat mushaklar" kabi so'z va iboralar uchrab qolsa, tabiiyki erkak jins vakilini tasavvur qilamiz. Aksincha "yanoq, dudoq, gulgun chehra" singari leksik birliklarni o'qiganimizda bejirimgina ayol zoti ko'z o'ngimizga keladi. Tarjimonlar bu kabi gender ifodalovchilarga nisbatan transformatsiyasida qanday yondashuv qiladilar. Misollar orqali tahlillarimizni davom ettiramiz. *"The second sentry, a large man muffled in a blue overcoat from which villainous black whiskers burst, came through the mud toward them."*.... *"The voice issuing from the whiskers had the same nasal twang but was kind and pleasant and his hand was firm and respectful."* (Mitchell.M.,1993,473) *"Ko'k shinelli novcha yigit, bukchaygan va boshini yelkasiga shunday tortib olganki- go'yo qora mo'ylovlari yoqasidan o'sib chiqqanday- ikkinchi soqchi loyga botib, ular tomon yurdi."*... *"Mo'ylovlar orasidan eshitilayotgan manqa ovoz dimog'dan chiqar, biroq mayin va yoqimli, uni tirsagidan ehtirom bilan suyab borayotgan qo'l esa qat'iyatli edi."* (Митчелл.М.,2020,84) Ushbu ikki parchadagi genderlikni ko'rsatuvchi lisoniy birliklardan ayni tahlilimizdagi tana a'zolariga tegishli bo'lgan "whiskers" leksemasi erkaklarning tana a'zosi hisoblanib o'zbek tiliga "mo'ylov" deb tarjima qilingan. Ingliz tilida "mustache" leksemasi ham ushbu so'zga sinonim shaklida ishlatiladi, faqat ularning erkaklar tanasidagi joylashgan o'rniga ko'ra bir oz farq mavjud. Whiskers bu erkaklar soqolining yuzning yon tomonlarida yoki iyagida o'sadigan qismi (bakinbard) bo'lsa, mustache- erkaklar lablari ustki tomonida o'sadigan aynan o'zbek tilidagi mo'ylov hisoblanadi(Cambridge Advanced Learner's Dictionary and Thesaurus (online)). Tarjimon parchaning keyingi qismlaridagi ma'lumotlarning berilishiga mos holda

“mo‘ylov” so‘zida to‘g‘ri tanlov qilgan desak xato qilmaymiz, chunki “*The voice issuing from the whiskers*” iborasidan tushunib yetish mumkinki, gap bakenbard haqida emas, aksincha mo‘ylov ustida bormoqda. Bu o‘rinda tarjimon gender komponentli leksikaning to‘liq muvofiqligiga erishganligini ko‘rish mumkin.

c) Uy ro‘zg‘or buyumlari hamda mehnat qurollarining gendrologik jihatlari

Gender tafovutlari borasida fikr yuritar ekanmiz, hayotda erkak va ayollarga xos alohida yumushlar mavjudligi va bu jarayonda foydalanadigan asboblarda ham farqlar borligini kuzatamiz. Xo‘sh badiiy asarlar tarjimasida bu kabi uy ro‘zg‘or buyumlari yoki mehnat qurollarini bildiruvchi leksemalar tarjimasida mutarjimlar qanday usullardan foydalanib muvofiqlikka erishadilar. Margaret Mitchel talqinida bu turkum leksik birliklar quyidagicha berilgan. “*At the sight of Ashley in rags, with an axe in his hand, her heart went out in a surge of love and of fury at fate.*”(Mitchell.M.,1993,436) “*Ust-boshi juldur, qo‘lida bolta tutgan Eshliga qarab turib Skarlett yuragi unga muhabbatdan va hammasi ko‘ngilsiz kechayotganidan siqilayotganini his qildi.*”(Митчелл.М.,2020,14). Bosh qahramonning sevgilisi tasvirida erkaklar uchun xos bo‘lgan mehnat quroli bo‘lmish “axe” so‘zidan foydalanilgan va tarjimon ushbu so‘zning to‘liq lug‘aviy ekvivalent shakli “bolta” so‘zi bilan tarjimaning muvofiqligiga erishgan.

d) Pardoiz-andoz buyumlari, taqinchoqlar hamda aksessuarlar (bezaklar)ning gender leksikasiga aloqadorligi

Erkak va ayollarning jinsga oid farqlarini ularning qo‘shimcha buyumlari, jumladan taqinchoqlari, pardoiz-andoz hamda shaxsiy gigiyenik buyumlari, kiyimlarni bezab turuvchi aksessuarlari orqali ham bilish mumkin. Bu kabi buyumlar asosan madaniyat belgisi hisoblanadi va badiiy asarlarda millatga mos ravishda qo‘llaniladi. Tarjima jarayonida ularning muqobil shaklga keltirishda asosan lug‘aviy ma‘nosi orqali tanlov qilinsa, ba‘zi holatlarda izohlash yoki kompensatsiya yo‘li bilan ham matn o‘giriladi. “*She slipped into her pierced ears the diamond earrings she had brought from Tara, and tossed her head to observe the effect. They made pleasant clicking noises which were very satisfactory and she thought that she must remember to toss her head frequently when with Rhett. Dancing earrings always attracted a*

man and gave a girl such a spirited air. What a shame Aunt Pitty had no other gloves than the ones now on her fat hands! No woman could really feel like a lady without gloves, but Scarlett had not had a pair since she left Atlanta. And the long months of hard work at Tara had roughened her hands until they were far from pretty. Well, it couldn't be helped. She'd take Aunt Pitty's little seal muff and hide her bare hands in it Scarlett felt that it gave her the final finishing touch of elegance.” (Mitchell.M.,1993,471) “Keyin Taradan keltirilgan brilliant isirg‘alarni qulog‘iga taqdi va boshini orqaga tashlab, bu qanday taassurot qoldirarkin, deb qaradi. Isirg‘alar yoqimli jiringlardi-bu Skarlettga juda yoqdi va u Rett bilan uchrashganida boshini tez-tez orqaga tashlashga qaror qildi. Raqs tushayotgan isirg‘alar doim erkaklar nigohini o‘ziga jalb qilar va ayolga salobat, dadillik bag‘ishlardi. Hozir Pitti ammada do‘mboq qo‘llariga kiyib olgan qo‘lqopdan boshqa qo‘lqopi yo‘qligi alam qiladi. Birorta ham ayol qo‘lqopsiz o‘zini chinakam ledi deb hisoblay olmaydi, lekin Skarlettga Atlantani tark etganidan beri qo‘lqop bitmadi, Og‘ir mehnat tufayli qo‘llari dag‘allashib ketdi, jozibasini yo‘qotdi. Mayli, iloj qancha? Pitti ammaning dengiz mushugi mo‘ynasidan tikilgan yengchasini olib, ichiga qo‘lini yashirib tursa bo‘ladi.”(Митчелл.М.,2020,81). Muallif og‘ir qiyinchiliklarni boshidan kechirishiga qaramay ayollik nazokatini yo‘qotmaslik borasida o‘ylayotgan bosh qahramon xatti-harakatlarini ifodalashda, gender leksikasining “diamond earrings, dancing earrings, gloves, muff” kabi gender komponentli birliklaridan foydalangan. O‘z o‘rnida tarjimon ushbu leksik birliklarni “brilliant isirg‘alar, raqs tushayotgan isirg‘alar, qo‘lqop, yengcha” kabi to‘liq mos keluvchi muvofiq variantlari bilan tarjima qilgan va samarali natijaga erishgan. Bu esa V.N.Komissarov tomonidan ishlab chiqilgan tarjima muvofiqligiga erishishning to‘rtinchi va beshinchi ekvivalentlik darajalariga mos keladi. (Komissarov.V.N., 1990, 51-85)

XULOSA

Insonlar nutqida qo‘llanuvchi gender komponentli leksik birliklar bilan bir qatorda ularni o‘rab turgan muhit va sharoitga ko‘ra, ijtimoiy turmush tarzini ko‘rsatuvchi leksika ham genderlik ifodalovchilar hisoblanadi. Badiiy asarlar

tarjimasida ayni shu sohaga oid soʻz va iboralarni maʼlum guruhlarga tasniflab, ularning muqobillik darajalarini tahlil qilganimizda shu xulosaga keldikki, insonlarning tana aʼzolari, uy-roʻzgʻor buyumlari va mehnat qurollari, kiyim-kechak va pardoz andoz buyumlari (aksessuarlar) nomlari, oziq -ovqat atamalari ingliz va oʻzbek tili tarjimalarida toʻliq muqobillikka ega boʻladi. Buning sababi xar ikki tilda erkak va ayol jins vakillari uchun ijtimoiylik ifodasini beruvchi gender birliklari oʻz lugʻaviy maʼnosiga ega. Tarjimonlar transformatsiyaning izohlash, kompensatsiya, sinonimik almashtirish generalizatsiya usullaridan foydalanib muqobillikka erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Axmedova M. Zamonaviy tilshunoslikda semantik maydon tushunchasi va uning oʻrganilishi//Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar, № 10. 2023.- B. 26
2. Axmedova D. Tilga system yondashuvning lingvistik konsepsiyalari// Zamonaviy tilshunoslikning milliy yuksalish va ilmiy tafakkur taraqqiyotidagi oʻrni. Buxoro, “Durdona” nashriyoti. 2021.- B.56
3. Sirojiddinov.Sh. Odilova.G. Badiiy tarjima asoslari.-Toshkent: Mumtoʻz soʻz, 2011.-B.16
4. Rahimov. Gʻ. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik majmua.- Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – B.16
5. Collins COBUILD Advanced Learner’s Dictionary. Copyright Harper Collins Publishers
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Paisley_shawls.
7. Mitchell.M. Gone with the wind. –USA: Warner Books edition,1993.-P.868
8. Mitchell.M. Shamollarda qolgan hislarim: roman (I-II kitoblar)/- Toshkent:Pravo-press,2020.-B. 832
9. Cambridge Advanced Learner’s Dictionary and Thesaurus. Cambridge University Press.
- 10.Komissarov. V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekti). - M.: Vissh. shk., 1990. – S. 253

REFERENCES

1. Ahmadvova M. (2023) In modern linguistics, the concept of field semantics and its study. Educational and innovative research, № 10. P. 26
2. Akhmedova D. (2021) Linguistic concepts of the system approach to language. The role of modern linguistics in the development of national rise and scientific thought. Bukhara," Durdona " Publishing House. P. 56
3. Sirojiddinov. Sh Odilov.G. (2011) Basics of artistic translation. Tashkent: Classical word. P.16
4. Rahimov. G. (2016) Theory and practice of translation: textbook complex.- Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan, State Scientific Publishing House. P.16
5. Collins COBUILD Advanced Learner's Dictionary. Copyright Harper Collins Publishers
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Paisley_shawls.
7. Mitchell. M. (1993) Gone with the wind. USA: Warner books edition. P.868
8. Mitchell. M. (2020) My feelings left in the winds. Novel. Tashkent: Pravo-press. P.832
9. Cambridge Advanced Learner's Dictionary and Thesaurus. Cambridge University Press.
10. Komissarov, V. N. (1990) Theory of translation (linguistic aspects). - M.: Higher School. P. 253